

SHAHODAT ISAXONOVA HIKOYALARIDA  
MILLIY MENTALITETIMIZGA XOS  
JIHATLARNING AKS ETISHI

Gulimmetova Saodatjon Samandar qizi, Urganch davlat universiteti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasida o'qituvchisi

THE REFLECTION OF ASPECTS OF OUR  
NATIONAL MENTALITY IN THE STORIES OF  
SHAHODAT ISAKHONOVA

Gulimmetova Saodatjon, teacher of the Uzbek language and literature department of Urganch State University

ОТРАЖЕНИЕ АСПЕКТОВ НАШЕГО  
НАЦИОНАЛЬНОГО МЕНТАЛИТЕТА В  
РАССКАЗАХ ШАХОДАТ ИСАХОНОВОЙ

Гулимметова Саодатжон Самандаровна, преподаватель кафедры узбекского языка и литературы Ургенчского государственного университета

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada mahoratli yozuvchi Shahodat Isaxonovaning bir qator hikoyalari tahlilga tortilgan. Hikoyalarning xalqchilligi, obrazlar tabiati va g'oyalarning o'ziga xosligi tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** hikoya, janr, g'oya, obraz, mahorat, milliylik, tanqid, timsol.

**Abstract:** This article analyzes a number of stories of the skilled writer Shahodat Isakhanova. The folklore of the stories, the nature of the images, and the originality of the ideas are analyzed.

**Key words:** Story, genre, idea, image, skill, nationality, criticism, symbol.

**Аннотация:** В данной статье анализируется ряд рассказов искусной писательницы Шаходат Исакхановой. Анализируются фольклорность рассказов, характер образов, оригинальность идей.


**Ключевые слова:** рассказ, жанр, идея, образ, мастерство, национальность, критика, символ.

**KIRISH.** Adabiyot tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, hikoya janri dunyo adabiyotida ham, o'zbek adabiyotida ham taraqqiy topib kelayotgan janrlardan biri hisoblanadi. Hikoya badiiy adabiyotda o'zining munosib o'rniga ega. Bilamizki, obrazlar kamligi, bir hayotiy voqeani aks ettirishi va juda qisqaligi uning janriy o'ziga xosligi hisoblanadi. Ko'pgina olimlarning fikriga ko'ra, hikoya janrining kelib chiqish ildizlari xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. Ba'zi bir olimlar hikoya asosini maqol va latifalar tashkil qiladi deb qarashlar, ba'zilari bu fikrni inkor qilib, uning kelib chiqishini xalq ertaklari bilan bog'laydi. Umuman olganda, har ikkala qarashlar ham o'z isbotini topa oladi. Chunki, hikoyaning qisqaligi va ibratomuz xulosasi maqollarni esga solsa, voqeabandligini ertaklarga taqqoslash mumkin.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.**

O'zbek adabiyotida ham hikoya janri asrlar

davomida rivojlanib, taraqqiy topib kelmoqda. Turkiy xalqlar adabiyotida bu janr qadimiy janrlardan biri hisoblanib, uning ilk namunalarini Kultegin va Bilga xoqon bitiktoshlarida ham, Nosuriddin Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asarida ham ko'rishimiz mumkin. XX asr o'zbek adabiyotida hikoya janri yanada rivojlandi. Abdulla Qodiriy va Cho'lpon kabi jadid adabiyoti vakillari hikoya janrida ham realistik tamoyillarni belgilab berdi va shu orqali yangi o'zbek hikoyachiligi vujudga keldi. Taniqli hikoyanavis Abdulla Qahhor esa uni yana bir pog'onaga ko'tardi. Bugungi o'zbek adabiyotida ham hikoya janrida qalam tebratayotgan ko'pgina adiblarni sanab o'tishimiz mumkin. Bular orasida mahoratli adiba Shahodat Isaxonova hikoyalari o'ziga xosligi, tili ravonligi va g'oyalarning teranligi bilan ajralib turadi. Adiba hikoyalaridagi obrazlar tahlili va ulardagi hayotiy



<https://orcid.org/0000-0001-9265-3858>

e-mail:

[gulimmetovasaodatsamandarqizi@mail.ru](mailto:gulimmetovasaodatsamandarqizi@mail.ru)

voqealar asosidagi ijtimoiy muammolarni tadqiq qilish mavzuning dolzarbligini tashkil qiladi.

**MUHOKAMA.** Taniqli adiba Shahodat Isaxonova hikoyalarida bugungi kundagi qishloq odamlari hayoti, ularning samimiy turmush tarzi, pok ruhiy dunyosi tasvirlangan. Adiba mana shunday beg‘ubor insonlar orasida yangilikka, rivojlanishga intilib, shahar hayotiga taqlid qilish orqali ota-bobolardan meros bo‘lib o‘tib, qon-qonimizga singib ketgan urf-odat va an‘analarni unutib qo‘yayotgan insonlarning xatti-harakatlari, o‘y-kechinmalari tasviri orqali kitobxonni mulohaza qilishga undaydi. Shuningdek, muallif “Hayotni uning o‘z shakllarida ko‘rsatish vazifasi badiiy asar tilidan obrazlilikni talab qiladi, ya‘ni yozuvchi hayotni, kishilarni, ularning kechinmalarini, tabiat manzaralarini shunday tasvirlashi lozimki, bu tasvir natijasida yozuvchi ifodalamoqchi bo‘lgan manzara bizning ko‘z oldimizda ham yorqin namoyon bo‘lsin”[1;210]. Adibaning mana shunday hikoyalaridan biri “Namunali kelin” hikoyasidir. Hikoyaning bosh obrazi Zumrad tuta<sup>1</sup>. Asarda Zumrad xolaning kelin olish voqealari aks etgan. Zumrad xola tabiatan to‘g‘riso‘z, mehnatkash, saranjom-sarishta, oqko‘ngil ayol. Muallif hikoyaning birorta joyida uning sifatlarini tirkab ko‘rsatmaydi. Avvaliga kitobxon butun qishloq kelinlarining u haqdagi g‘iybatlaridan Zumrad tutani bir zolim ayol deb o‘ylaydi-yu, ammo voqealar rivoji orqali uning o‘zbekona urf-odatlarimizni, rasm-rusumlarimizni, oqibat, diyonat kabi qadriyatlarimizni ko‘z qorachig‘iday saqlashga urinayotgan, sodda, tanti ayol ekanligini tushunib yetadi. “Zumrad tutaning uch qiziyam shu qishloqqa tushgan. “Yaxshi qiz qishloqdan ortmaydi”, – degan naqlni qulog‘iga sirg‘aday taqib olib, qo‘ni-qo‘shni qizlarning bo‘y yetganiga sha‘ma qilishi ham shundan. Gapning to‘g‘risi, tutaning qizlarinikidan sira ing-ming chiqmagan. Chunki chiqsayam onalaridan naf yetmasligini qizlari yaxshi bilishadi. Tutaga qudalarining gapi gap, so‘zi so‘z. Hech qachon qudalari qolib qizlariga qayishmaydi”[5;44]. Ko‘pchilik oilalarda bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri qaynona va kelin munosabatlaridir. Istaymizmi, yo‘qmi bugungi jamiyatda ba‘zi oilalar, aynan, ularning kelishmovchiligidan buzilib ketayotganligiga guvoh bo‘lamiz. Bu voqealarga sabab bo‘layotgan

jamiyatdagi ko‘pgina illatlarni sanab o‘tishimiz mumkin. Ammo adiba bunga sabab qilib faqatgina bir narsani – insoniy burchlarni ko‘rsatadi. Hikoyada nasihatgo‘ylikka, bayonchilikka yo‘l qo‘yilmagan. Asarni o‘qigan kitobxon voqealar rivoji orqali muallifning qaysi g‘oyani ilgari surayotganligini anglay oladi. Yuqoridagi parchadan ko‘rishimiz mumkinki, adiba ana shu ijtimoiy muammoni qalamga olgan.

Darhaqiqat, barcha yaratilgan maxluqot deb ataladi. Odam yaratilgan ekan, avvalo, uning oldida ikkita yo‘l mavjud. Birinchisi, ilm-u hunar o‘rganmasdan, o‘zini rivojlantirmasdan “maxluqot” holiga tushish, ikkinchisi, o‘zini, o‘zligini anglashi, Ollohni tanishi, ilm-ma‘rifatli bo‘lishi natijasida tabiat gulto‘ji sanalmish inson degan sharafli nomga munosib bo‘lish. Bu nomga munosib bo‘la olgan inson, albatta, o‘z burchlarini anglab, mas‘uliyatini his qilib yashaydi. Asardagi Zumrad tuta obrazi ham ana shunday jamiyat oldidagi burchini, farzandlik burchini, ota-onalik mas‘uliyatini his qila olgan insonlar sirasiga kiradi va farzandlarini ham mana shunday ruhda tarbiyalay oladi. Oqibatda qizlari ham, yolg‘izgina o‘g‘li ham hayotda o‘z o‘rniga ega, saodatmand insonlar bo‘lib yetishadi. Shahodat Isaxonovanning “Namunali kelin” hikoyasida Zumrad tuta xarakterini yoritishda muallifning badiiy mahorati yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Badiiylik darajasi, avvalo san‘atkorning o‘z predmetiga, ta‘sir obyektiga, ya‘ni odamlarga mehr ifodasining saviyasi ko‘lami, ta‘sir kuchidadir. Odamlarga mehr yozuvchining yalang‘och dabdabali gaplarida emas, asarning qoni-taniga singib ketgan chuqur ichki hissiy ohangidadir. San‘at asarida odamlarga mehr hammadan burun inson qalbiga e‘tibor demakdir, inson qalbidagi pinhoniy jarayonlarni ochib berish demakdir. San‘atkor odamlar hayoti, taqdiridagi muhim gapni topib aytolsa, qalbidagi muhim va nozik jarayonlarni ochib berolsa, odamlarning tashvish quvonchlariga bizni astoydil sherik qilolsa, ular haqida o‘ylashga undasa, faqat shundagina yuksak badiiylikka erishgan bo‘ladi”[4;85-86]. “Namunali kelin” hikoyasidagi Zumrad xolaning talabchanligi nafaqat oilasi uchun, balki butun qishloq yoshlari uchun ham bir-day. Shu sababdan ham yosh kelinlarning ko‘pchiligi uni yoqtirishmas, ortidan turli xil qarq‘ishlar yog‘dirib yurishar edi. Holbuki, bu nasihatlar, dakkilar

<sup>1</sup> Tuta – xola ma‘nosida, lekin qarindosh emas.

ularning kelajakdagi farovon hayoti uchun tamal toshi edi. Qaynona – bu ikkinchi ona, uni hurmat qilish, ko'nglini olish ona duosini olish bilan barobardir. Bu jihat o'zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan milliy qadriyatlarimizdan biri hisoblanadi. Uni aslo majburiyatga aylantirmaslik lozim. Adiba har kuni takrorlanavermaydigan, tilga olinib aytilavermaydigan, ammo, hayotning tub mohiyatiga aylanib ulgurgan qadriyatlar tasvirini qalamga olgan.

**NATIJALAR.** “Qahramonlar faoliyatiga, ruhiy dunyosiga, shuningdek, voqealar zamiriga singdirilib berilmagan g'oyaga ega bo'lgan asar, to'la ma'noda badiiy asar sanalmaydi. Haqiqiy badiiy asarda voqealar tizimi g'oyaga suyanib tuzilishi, qahramonlari g'oya asosida gapirishi yoki harakat qilishi kerak emas. Haqiqiy badiiy asar sanalishi uchun go'ya yozuvchi asari orqali ko'zlangan maqsad, niyat voqealar olamidani, qahramonlar faoliyatidan sizib chiqishi kerak”[3;129]. Adibaning mana shunday hayotiy, ibratli voqealar aks etgan hikoyalardan yana biri “Toshnok” hikoyasidir. Asar voqealari Kenja traktorining uyida toshnok borligi va nokning xususiyatlari tasviri bilan boshlanadi. Azim nok daraxti misolida qon-qarindoshlik, opa-uka, aka-singil, qo'ni-qo'shni, do'st-u birodarlik kabi muqaddas rishtalarning naqadar ulug'ligi ta'sirli tasvirlangan. Dono xalqimiz qiz bola ota uyiga mehmon deb bejiz aytishmagan. Asar qahramonlari Kenja traktorining uch opasi ham yilda bir martagina, toshnok pishganda ota uyiga mehmon bo'lib kelishardi. Bu mehmondorchilik qishloqning ko'pgina xonadonlari uchun quvonchli bayramga aylanadi. Chunki opa-singillar o'tgan ota-onasini eslashib, ularning hali hayot bo'lgan do'st-u birodarlari holidan xabar olishar, o'zlari birga o'ynab o'sgan dugonalari bilan uchrashar, ular bilan bolalikning beg'ubor yillarini yodga olishar edi. Ammo har to'kisda bir ayb deganlariday, bu mehmondorchilik Kenja traktorining xotini behuzur qilaverdi. “Kenja zo'r bola, lekin xotini chatoq, odam isi yoqmaydi unga. Bir ikki marta kelsam qovoq osdi. Shundan beri kirgim kelmaydi”[5;44]. Kenja traktorining onasining dugonalari ham shu taxlit bu uydan yiroqlashib ketishadi. “Mehmon bo'lsang mushtday bo'l, uchib o'tgan qushday bo'l”[5;44], – deb topib aytgan ekansan-a ey, mushtipar ona xalqim! Ota makonimga bir haftagina ham sig'madim-a!?” –

deya qizlar ham kelinining qovoq-tumshug'idan juda xafa bo'lishadi. Kelinning ziqnaligi, dunyoqarashi torligi sabab, bog' ham qurib ado bo'ladi. Olo'har bir ne'matini insonlarning qalbi pokligiga ko'ra ato etadi. Kelin ziqnaligi, qalbi torligi nok daraxtini ayni mevasi pishar chog'da daraxtni qulatadi. Daraxt tagida qolib bitta-yu bitta sigiri ham harom o'ladi. Qizi ham jarohatlanadi. Muallif mana shu hayotiy voqealarni asarida jonlantirish orqali insonning ruhiyatini turli illatlardan, tubanliklardan poklab yashashi zarurligiga urg'u beradi. Taniqli adabiyotshunos olim, yozuvchi Ulug'bek Hamdam ta'biri bilan aytganda “Shaxs o'z xudbinlik qobig'ini yorib chiqqan zot. U faqat o'zinigina o'ylashdan nihoyat uyalgan, o'zgarlar to'g'risidagi tashvishga esa ehtiyoj seza boshlagan kishidir. Shaxs yaxshilik qilib, baliqning bilish-bilmasligidan qat'i nazar, daryoga tashlab ketaverishi mumkin. Zero, uning karami o'zgarlar maqtoviga muhtoj emas. Shaxs o'zini o'zi taqdirlaydi, ayovsiz tanqid qiladi”[2;165].

**XULOSA.** Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, Shahodat Isaxonova hikoyalari xalqonaligi, syujetning real hayot bilan bog'liq holda tasvirlanishi bilan ajralib turadi. Adibaning asarlarini o'qir ekasiz, uning xalq og'zaki ijodi namunalarini juda yaxshi bilishining guvohi bo'lasiz. Chunki yozuvchi har bir fikrini xalq orasida keng tarqalgan maqollar, iboralar va ibratli fikrlar bilan isbotlab boradi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Sul'ton I. Adabiyot nazariyasi. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti. 1986 – B. 210.
2. Hamdamov, U. Badiiy tafakkur tadriji. Monografiya va maqolalar. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2002. – B.165.
3. Karimov, H. Istiqlo' davri adabiyoti. Toshkent. Yangi nashr. 2010 – B.129.
4. Normatov, U. Yetuklik. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1982 – B.85-86.
5. Isaxonova, Sh. Qirq kokilli kelinchak. Toshkent. Kamalak nashriyoti. 2015. – B. 44.
6. Rasulov, A. Badiiylik – bezavol yangilik. – T.: Sharq, 2007.
7. Karim B. Ruhiyat alifbosi. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018.
8. Kurbanbayeva, M. O'zbek xalq og'zaki ijodiyotida adolatli jamiyat to'g'risidagi ilk tasavvurlar ifodasi. Tamaddun nuri jurnali, 8(59), 2024.78-81.